



YERGA NISBATAN HUQUQBUZARLIK HOLATLARI KUZATILGAN VILOYATLAR TAHLILIIY MA'LUMOT

Xakimov Boxodirjon Baxtiyorjon o'g'li

"TIQXMMI" MTU Yer resurslarini boshqarish kafedrası katta
o'qituvchisi, PhD. baxodir.xakimov1@gmail.com

Quvotov Shohzod Baxrom o'g'li

"TIQXMMI" MTU Yer resurslari va kadastr fakulteti 1-bosqich
magistranti. shoxzod356@gmail.com

Kalandarov Abdumo'min Soibnazar o'g'li

Davlat kadastrlari palatasi, Bino va inshootlar davlat kadastrini
yuritish boshqarmasi bosh mutaxassisi, dkp.kas1992@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15209163>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-Aprel 2025 yil
Ma'qullandi: 07- Aprel 2025 yil
Nashr qilindi: 14-Aprel 2025 yil

KEYWORDS

*Yer, huquqbuzarlik, statistik
ma'lumotlar, huquqiy
savodxonlik, korrupsiya, yerdan
foydalanish, mulk, yer nazorati.*


ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida yerga nisbatan huquqbuzarlik holatlarining eng ko'p uchraydigan viloyatlari va ularning asosiy sabablari tahlil qilindi. Yerga oid huquqbuzarlik tushunchasi, ularning turlari, tarqalish darajasi va asosiy omillari yoritilgan. Statistik ma'lumotlarga asosanib, eng ko'p huquqbuzarlik kuzatilgan hududlar – Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari batafsil tahlil qilindi.

Yerdan foydalanish va mulkiy huquqlarni amalga oshirish har bir davlatning huquqiy tizimida muhim o'rin tutadi. mazkur maqola yerdan foydalanish va mulkiy huquqlarni himoya qilish bo'yicha huquqiy islohotlarning ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi. O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkasi — fuqarolar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va rezident bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni belgilovchi hujjatlarsiz, shu jumladan bunday hujjatlar yo'qolgan yoki to'liq rasmiylashtirilmagan holda egallab kelinayotgan yoki ortiqcha egallangan yer uchastkasi. O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalarini hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarni bosqichma-bosqich xatlovdan o'tkazish har yilgi reja-jadval asosida amalga oshiriladi.

Tadqiqotning dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasi hududida yerga nisbatan huquqbuzarlik holatlari turli viloyatlarda har xil darajada kuzatilmoqda. Yuqorida takidlanganidek muammo ildizlari, jumladan, huquqiy savodxonlikning yetishmovchiligi, korrupsion hoaltlarning ko'p ekanligi, nazoratning sustligi va yerga bo'lgan talabning ortishi kabi jihatlar bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligini ko'rsatib turibdi.

Tadqiqot ob'ekti va usullari: Yerga bo'lgan huquqni e'tirof etish reja asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi jo'qorg'i kengasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining taklifiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi tomonidan tasdiqlanadi va jamoatchilikka e'lon qilinadi. Ushbu maqolada O'zbekistonda yerga oid huquqbuzarliklar eng ko'p sodir etilayotgan viloyatlar va ularning asosiy sabablari statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilindi.



1-diagramma: Farg'ona viloyati bo'yicha o'tgan 2022-yil mobaynida yer qonun buzilishi bo'yicha 1 050 ta holatda 213,7 gektar maydon aniqlandi.

389 ta holatda 83,1 gektar yer maydonlarida yo'l qo'yilgan qonunbuzilish holatlari joyida bartaraf etilgan.

543 ta holatda sudlarga da'vo arizalari kiritildi.

64 ta jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan 91,7 gektar yer uchastkalaridan maqsadsiz foydalanish holatlari aniqlandi.

118 ta holatda prokuratura organlariga to'plangan hujjatlar Qo'shma tartib asosida taqdim etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.06.2021 yildagi 6243-sonli Farmoni asosida yerlardan boshqa maqsadda foydalanilganda to'g'ridan-to'g'ri sudga da'vo arizasi kiritish vakolatlari berildi.

Davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyati boshqarmasi boshlig'i Sobir Shaymardanov. – O'tgan yil davomida 938 holatda 318,27 gektar yerni o'zboshimchalik bilan egallab olish holatlari aniqlandi. – Natijada 596 yoki 63,5 foiz noqonuniy holat bartaraf etilib, yer maydonlari asl holiga qaytarildi. 411 holatda sud organlariga davo arizalari kiritildi. 87 yoki 21,1 foiz holatda aniqlangan yer bilan bog'liq qonun buzilish holatlarida jinoyat alomatlari mavjud bo'lganligi sababli prokuratura organlariga taqdim etildi. O'tgan yil davomida 2 ming 423 nafar huquqbuzarga ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirildi.

O'zbekiston Milliy matbuot markazi binosida Kadastr agentligi va Davlat kadastrlari palatasi Toshkent viloyati hamda Toshkent shahar boshqarmalari tomonidan 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar mavzusida o'tkazilgan matbuot anjumanida ta'kidlandi.

Toshkent viloyatida esa yer uchastkasini o'zboshimchalik bilan egallash bilan bog'liq **4 876 ta yoki 434,4 gektar** holat aniqlandi. Berilgan yozma ko'rsatmalar asosida **2 373 ta holatda 87,4 gektar** maydondagi qonunbuzilish holatlari ixtiyoriy bartaraf etilishi ta'minlandi. O'zboshimchalik bilan egallangan yer maydonlarida qurilgan noqonuniy qurilmalarni buzdirish yuzasidan sudlarga **2 290 ta** (332,3 ga) da'vo arizalari kiritildi. Yerga oid qonun buzilishi holatlarida jinoyat alomatlari kuzatilgan **163 ta** (56,7 ga) ish hujjatlari o'rnatilgan tartibda prokuratura organlariga yuborildi. Yer maydonlaridan maqsadsiz foydalanish va zaxira yer fondiga qaytarish bo'yicha **237 ta** (1 907 ga) tuman hokimliklariga

taqdimnomalar kiritildi. Olib borilgan nazorat tadbirlarida viloyat bo'yicha **4 070 nafar** jismoniy hamda yuridik shaxslar ma'muriy javobgarlikka tortilgan.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytadigan bo'lsak, yerga oid huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha taklif etilayotgan yechimlar, jumladan, nazoratni kuchaytirish, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish, huquqiy targ'ibot ishlari va korrupsiyaga qarshi kurash choralari tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.X.Boltayev, Q.Raxmonov Geoaxborot tizimining ilmiy asoslari, Toshkent- 2015, 3-225.
2. O'zbekiston Respublikasi yer fondi hisoboti 2022-2023- yillar holati bo'yicha. 163-165 betlar.
3. "Yer uchastkalariga kadastr raqamlari bilan chegara belgilarini obyektlarga o'rnatish" №000764. 17.04.2018.
4. "Land administration and its impact on economic development" 2016, april. DOI: 10.13140/RG 2,1.4139,9281. P 2-3.
5. A.R.Bobojonov, A.M.Muqumov, Z.X.Xafizova, B.V.Xalilova "Yerdan foydalanishni integratsion boshqarish ". - O'quv qo'llanma, T.: TIQXMMI 2017. 100-104 betlar.
6. A.R.Bobojonov, A.M.Muqumov, Z.X.Xafizova, B.V.Xalilova «Xududlarni rivojlantirish ". - O'quv qo'llanma, T.: TIQXMMI 2017. 79-84 betlar.
7. A.R.Bobojonov, A.M.Muqumov, Z.X.Xafizova, B.V.Xalilova "Yerdan foydalanishni integratsion boshqarish". - O'quv qo'llanma, T.: TIQXMMI 2017. 112-119 betlar.
8. O'zbekiston Respublikasining O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida O'RQ-937-son qonuni 05.08.2024 yildagi
9. O'zbekiston Milliy axborot agentligi (O'ZA). 2023-yil, Kadastr agentligi Farg'ona viloyati 2022-yilda amalga oshirilgan ishlar.
10. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice-2>.